



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY STATISTIKA QO‘MITASI
KADRLAR MALAKASINI OSHIRISH VA STATISTIK
TADQIQOTLAR INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”

Kadrlar malakasini oshirish va
statistik tadqiqotlar instituti direktori

Sh.Z. Shukurov

“25” *Avval* 2026 - yil



“Statistika asoslari” bo‘yicha shartnoma asosida
tashkil etiladigan o‘quv kursining (20 soat)

(Statistika hisobotini topshiruvchilar, shu jumladan tadbirkorlik sub’ektlari
xodimlarining statistika sohasidagi savodxonligini va hisobotlarni to‘ldirish bo‘yicha
ko‘nikmalarini oshirishga mo‘ljallagan)

ISHCHI O‘QUV DASTURI

Toshkent – 2026

Tuzuvchi:

- Umarov M.T. - O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi Raqamli texnologiyalar, sun‘iy intellekt va statistik registrlarni yuritish boshqarmasining statistik registrlarning yuritish bo‘limi boshlig‘i
- Axmedova M.N. - Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutining O‘quv-uslubiy ishlar bo‘limi boshlig‘i
-

Taqrizchilar:

- Abduvaliyev A.A. - Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti direktorining ilmiy ishlar, innovatsiyalar va xalqaro aloqalar bo‘yicha o‘rinbosari.

Kursning ishchi o‘quv dasturi Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti Kengashining 2026-yil 25- fevral dagi 01-sonli yig‘ilishida muhokamadan o‘tgan va o‘quv jarayonida foydalanishga tavsiya qilingan.

KIRISH

Mazkur ishchi o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekiston Strategiyasi" asarida belgilab berilgan ustuvor yo'nalishlar, O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldagi "Statistika ishlarini tashkil etish va yuritish tizimini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-27-sonli farmoni va 2025-yil 24-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-75-sonli qarori, Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti faoliyatini takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risida"gi 106-sonli qarorida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u zamonaviy talablar asosida, statistika hisobotini topshiruvchilar, shu jumladan tadbirkorlik subyektlari xodimlarining statistika sohasidagi savodxonligini va hisobotlarni to'ldirish bo'yicha ko'nikmalarini oshirib borishni maqsad qiladi.

Ushbu ishchi o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi) bilan kelishilgan holda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan 2023-yil 4-oktyabrda tasdiqlangan "Rasmiy statistika sohasida kadrlarning kasbiy kompetensiyasini uzluksiz ravishda oshirishga qo'yiladigan Davlat ta'limi talablari"ga javob beradi.

Ushbu malaka oshirish kursi statistikaga doir bilimlarni keng va chuqur tushuntirib berishga asoslanganligi bilan boshqa o'quv kurslardan farq qiladi.

Kursning maqsadi va vazifalari

"Statistika asoslari" o'quv kursining **maqsadi** - statistika hisobotini topshiruvchilar, shu jumladan tadbirkorlik sub'ektlari xodimlarining statistika sohasidagi savodxonligini va hisobotlarni to'ldirish bo'yicha ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan.

Kursning **vazifalariga** quyidagilar kiradi:

- statistika faoliyatini amalga oshirishning me'yoriy-huquqiy asoslarini o'zlashtirish;
- statistika predmeti va metodi, uning ahamiyati va roli haqida chuqur bilim va tasavvurga ega bo'lish;
- statistikaning nazariy, uslubiy va amaliy masalalarini har taraflama o'rganish;
- mavjud statistik ma'lumotlarni jamlash, guruhlash va tahlil etish;
- statistik, mikro va makro iqtisodiy ko'rsatkichlar, ularning turlari va shakllarini o'rganish, ularni taqqoslash hamda ulardan amaliyotda samarali foydalanish;
- statistik hisobot shakllari va ularni topshirishga oid axborot tizimi(e Stat 4.0)dan foydalanish;
- Tashkilot xo'jalik faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari to'g'risidagi statistik hisobotini (1 korxonada shakli) to'ldirish va taqdim etish tartibi;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar asosida statistik o'rganish;
- dinamika qatorlarida tendensiyalarni aniqlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni iqtisodiy indekslar usulidagi statistik tahlil etish;

- yalpi ichki mahsulot (yalpi hududiy mahsulot), uni hisoblash usullarini bo'lish;
- korxonalarining iqtisodiy salohiyati hamda moliyaviy faoliyat natijalarining iqtisodiy-statistik tahlil etish.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar:

“Statistika asoslari” o'quv kursi bo'yicha tinglovchilar quyidagi bilim, ko'nikma hamda malakalarga ega bo'lishlari talab etiladi:

Tinglovchi:

- rasmiy statistika tizimini hamda rasmiy statistika ko'rsatkichlarini e'lon qilish tartibini;
- statistik kuzatish turlarini;
- statistik hisobot shakllari va ularni topshirishga oid axborot tizimi(e Stat 4.0)ni;
- Tashkilot xo'jalik faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari to'g'risidagi statistik hisobotini (1 korxonaga shakli) to'ldirish va taqdim etish tartibi;
- mutlaq, nisbiy va o'rtacha miqdorlarni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlarini;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni dinamika qatorlari usulidagi statistik tendensiyalarni;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning iqtisodiy indekslar usulidagi statistik tahlilini;
- milliy iqtisodiyotda makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni statistik hisoblash usullarini;
- iqtisodiyot tarmoqlari faoliyatini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlarning iqtisodiy-statistik tahlil etishni;
- korxonalarining iqtisodiy salohiyati hamda moliyaviy faoliyat natijalarining iqtisodiy-statistik tahlil qilishni **bilishi** kerak.

Tinglovchi:

- rasmiy statistika ko'rsatkichlarini e'lon qilish;
- statistik kuzatish turlarida tanlanma kuzatish qoidalarini bilish;
- statistik hisobot shakllari va ularni topshirishga oid axborot tizimi(e Stat 4.0)ning funksional imkoniyatlarini bilish;
- Tashkilot xo'jalik faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari to'g'risidagi statistik hisobotini (1 korxonaga shakli) to'ldirish va taqdim etish tartibi;
- mutlaq, nisbiy va o'rtacha miqdorlarni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni dinamika qatorlari usulidagi statistik tendensiyalarni tahlil qilish;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni iqtisodiy indekslar usulidagi statistik tahlil qilish;
- makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni statistik hisoblash usullaridan foydalanish;
- iqtisodiyot tarmoqlari faoliyatini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlarning iqtisodiy-statistik tahlil etish;
- korxonalarining iqtisodiy salohiyati hamda moliyaviy faoliyat natijalarining iqtisodiy-statistik tahlili bo'yicha **ko'nikmaga** ega bo'lishi kerak.

Tinglovchi:

- rasmiy statistika tizimida rasmiy statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish;
- tanlanma kuzatish mohiyatini, uni qo'llash sabablari va afzalliklarini aniqlash;
- statistik hisobot shakllari va ularni topshirishni o'rganish;

- Tashkilot xo'jalik faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari to'g'risidagi statistik hisobotini (1 korxonada shakli) to'ldirish va taqdim etish tartibi;
- mutlaq, nisbiy va o'rtacha miqdorlarni o'rganish;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni dinamika qatorlari usulidagi statistik tahlilini olib borish;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning iqtisodiy indekslar usulidagi statistik holatini aniqlash;
- milliy iqtisodiyotda makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni statistik hisoblash;
- iqtisodiyot tarmoqlari faoliyatini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlarning iqtisodiy-statistik tahlil qilish;
- e-Stat 4.0 axborot tizimining funksional imkoniyatlarini bilish;
- korxonalarining iqtisodiy salohiyati hamda moliyaviy faoliyat natijalarini iqtisodiy-statistik tahlil qilish *malakalariga* ega bo'lishi kerak.

Kursning o'quv rejasidagi boshqa kurslar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

“Statistika asoslari” o'quv kursi KMOSTning O'quv-uslubiy ishlar bo'limi hamda O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi Raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va statistik registrnlarni yuritish boshqarmasining statistik registrnlarning yuritish bo'limi boshlig'i Umarov M.T. tomonidan statistika yo'nalishidagi o'qitiladigan barcha o'quv kurslari bilan o'zaro uyg'unlikda hamda uslubiy jihatdan uzviy bog'liq holda ishlab chiqilgan. Xususan, “Statistika uslubiyoti va amaliyoti”, “Milliy hisoblar tizimi”, “Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish uslubiyoti va tahlili” malaka oshirish o'quv kurslari shuningdek “Statistika (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)” qayta tayyorlov kursi va boshqa o'quv kurslari bilan chambarchas bog'liq.

Kursning amaliyotda tutgan o'rni

“Statistika asoslari” o'quv kursi, statistika hisobotini topshiruvchilar, shu jumladan tadbirkorlik sub'ektlari xodimlarining statistika sohasidagi savodxonligini va hisobotlarni to'ldirish bo'yicha ko'nikmalarini oshirish maqsadida ishlab chiqildi.

Ushbu o'quv kursi iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va qabul qilinadigan hujjatlarni makroiqtisodiy nuqtai nazardan tahlil qilish uchun alohida ahamiyatga ega.

Kursni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

“Statistika asoslari” o'quv kursini o'zlashtirish uchun o'qitishning zamonaviy usullaridan foydalanish, ya'ni tarqatma materiallar, o'quv kursiga oid prezentatsiyalar, shuningdek, yangi pedagogik texnologiyalarni (keys-stadi, ilmiy prezentatsiyalar) tatbiq qilish muhim ahamiyatga ega.

Kurs hajmi

t/r	Mashg'ulot turi	Auditoriya soatlarining nisbati
1.	Ma'ruzalar	60,0 %
2.	Amaliy mashg'ulotlar	40,0 %

Tinglovchilarni baholash mezonlari

Ushbu kurs materiallarini o'zlashtirgan tinglovchilarga davlat namunasidagi guvoohnoma beriladi.

“Statistika asoslari” o‘quv kursining mavzular bo‘yicha taqsimlanishi

(20 soat)

t/r	Mavzular nomi	Jami soatlar	shu jumladan:	
			Ma'ruza	Amaliyot
1	2	3	5	6
1.	Rasmiy statistika tizimi. Rasmiy statistika ko'rsatkichlarini e'lon qilish tartibi, "Statistika" integratsiyalashgan axborot tizimi	2	2	-
2.	Statistik kuzatish usullari, tanlanma kuzatish. Statistik hisobot shakllari va ularni topshirishga oid axborot tizimi (e Stat 4.0). Tashkilot xo'jalik faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari to'g'risidagi statistik hisobotini (1 korxonada shakli) to'ldirish va taqdim etish tartibi	4	2	2
3.	Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar asosida statistik o'rganish. Mutloq, nisbiy va o'rtacha miqdorlarni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari	2	2	-
4.	Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning dinamika qatorlari usulidagi statistik tahlili. Dinamika qatorlarida tendensiyalarni aniqlash usullari	2	-	2
5.	Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning iqtisodiy indekslar usulidagi statistik tahlili. Agregat va garmonik indekslarning qo'llanishi	2	-	2
6.	Milliy iqtisodiyotda makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni statistik hisoblash usullari. Yalpi ichki mahsulot (yalpi hududiy mahsulot), uni hisoblash usullari	4	2	2
7.	Iqtisodiyot tarmoqlari faoliyatini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlarning iqtisodiy-statistik tahlili	2	2	-
8.	Korxonalarining iqtisodiy salohiyati hamda moliyaviy faoliyat natijalarining iqtisodiy-statistik tahlili	2	2	-
J A M I:		20	12	8

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarda tinglovchilar o'quv modullari doirasidagi ijodiy topshiriqlar, keyslar, o'quv loyihalari asosida amaliy ishlarni bajaradilar. Amaliy mashg'ulotlar zamonaviy ta'lim uslublari va innovatsion texnologiyalarga asoslangan holda o'tkaziladi. Shuningdek, mustaqil ta'lim mavzularini o'zlashtirishda individual holda o'quv va ilmiy adabiyotlar, elektron resurslar, tarqatma materiallardan foydalanish tavsiya etiladi.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 11-avgustdagi "Rasmiy statistika to'g'risida"gi O'RQ-707-son qonuni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldagi "Statistika ishlarini tashkil etish va yuritish tizimini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar" to'g'risidagi 27-sonli farmoni.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari" 75-sonli qarori.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2025-yil 24-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi 106-son qarori

5. O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-son qonuni.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston Strategiyasi. –T.: "O'zbekiston". – 2021. –457 b.

7. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T.: "O'zbekiston". – 2017.– 102 b.

III. Maxsus adabiyotlar

8. Soatov N.M. Statistika. // Darslik – T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2003.

9. Abdullayev Yo. Statistika nazariyasi. // Darslik – T.: O'qituvchi, 2002.

10. Shodiyev X.A., Habibullayev I. Statistika. // Darslik – T.: Iqtisod-Moliya, 2018. – 268 b.

11. Statistika. o'quv-uslubiy qo'llanma. 2022 yil. -75 b. O'z.R. DSQ huzuridagi nashriyot.

12. Shodiyev T.Sh. Ekonometrika. Darslik. – T. 2020. -250 b.

13. Статистика: Учебник. /Под ред. И.И. Елисейевой– - М.: Проспект, 2010. – ул. 448.
14. Система национальных счетов, 2008 г., ООН, МВФ, ОЭСР, ВБ, Нью Йорк, 2012
15. Аблеева А.М. Система национальных счетов и экономические балансы: учебное пособие. - Уфа, 2012 - 158 с.
16. Milliy iqtisodiyotdagi tarkibiy va tuzilmaviy o'zgarishlarning tizimli tahlili. V.Begalov umumiy tahriri ostida. Monografiya, 2018.
17. “Концептуальные основы макроэкономической статистики страны”. Сборник научных статей Госкомстата РУз, под общей редакцией Б.А.Бегалова-Т., 2018.
18. Qoraboyev A.R., G'oyibnazarov B.K., Rashitova N.X. Milliy hisoblar tizimi. Darslik. – Т.: “Iqtisod-moliya”, 2015. – 384 b.
19. Я.С.Мелкумов. Социально экономическая статистика. 2020г.
20. А.С.Трушков. Статистическая обработка информации. 2020 г.
21. В.Г.Ионина. Статистика. 2021 г.
22. В.Б.Яковлев, О.А.Яковлева. Практикум По общей теории статистики. 2022 г.
23. И ЕДенежкина, С.Е.Степанов, И.И Цыганок. Теория вероятностей и математическая Статистика в.вопросах и задачах.2022 г.
24. “Statistika asoslari” o'quv kursi bo'yicha ma'ruza matnlari. 2024-yil. <http://instat.uz/>
25. Питер Брюс и Эндрю Брюс. Практическая статистика для специалистов по обработке данных: 50 основных концепций. 2024 г.
26. А.А.Емилина, Е.А.Долгих. Статистический анализ инновационной активности предприятий и организаций в Российской федерации. 2025 г.

IV. Statistik to'plamlar va hisobotlar

27. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining yillik davriy nashrlari. 2015-2024 yillar.
28. O'zbekiston Respublikasida yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarish. Press-reliz. 2024- yil (dastlabki ma'lumotlar). https://stat.uz/img/01_vvp_press-reliz-2024_uzb_p61471.pdf
29. O'zbekiston Respublikasida yalpi hududiy mahsulotni ishlab chiqarish. Press-reliz. 2024- yil (dastlabki ma'lumotlar). https://stat.uz/images/uploads/reliz2024/VRP_pressreliz2024yuz.pdf

V. Internet manbalari

30. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumatining rasmiy sayti.
31. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy sayti.
32. www.Siat.uz – “Statistika” integrallashgan axborot tizimi.
33. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlarining milliy bazasi.